

TA'LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING
AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI

A.P.Xujamkulov

TDPU, o'qituvchi

Sh. Ikromaliyeva

TDPU, talaba

ИНФОРМАЦИЯ О
СТАТЬЕ

АБСТРАКТНЫЙ

ИСТОРИЯ СТАТЬИ:

Received: 07.04.2024

Revised: 08.04.2024

Accepted: 13.04.2024

КЛЮЧЕВЫЕ
СЛОВА:

*ta'lim, innovatsion
texnologiyalar, baholash
tizimi, onlayn ta'lim,
ko'nikmalar, baholash.*

So'nggi yillarda ta'lim tizimida ko'plab o'zgarishlar sodir bo'layapti. Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish ham shunday o'zgarishlardan biri. Ushbu maqola ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklarini yoritib beriladi.

Texnologiyalarning ta'lim tizimiga ham ta'siri yildan yilga ortib bormoqda. So'nggi yillarda ta'lim jarayonini innovatsion texnologiyalarsiz tashkil etish qiyin. Innovatsion ta'lim (ingl. "innovation"-yangilik kiritish,ixtiro) ta'lim oluvchida yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, me'yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'lim. Innovatsion ta'lim jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta'lim texnologiyalari yoki ta'lim innovatsiyalari deb yuritiladi. Innovatsion texnologiyalar –bu yangi g'oyalar, usullar yoki asbob-uskunalar yordamida yaratilgan va mavjud muammolarni hal qilishga qaratilgan texnologiyalar. Ular ko'pincha zamonaviy ilm-fan yutuqlari bilan bog'liq bo'lib, hayotimizning turli sohalarida, jumladan ta'limda ham o'z aksini topadi. Ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish, o'qitish va o'rganish jarayonlarni samarali va qiziqarli qilishda muhim rol o'ynaydi. Bunday texnologiyalarga misol keltiradigan bo'lsak: onlayn ta'lim platformalari, interaktiv ta'lim dasturlari, o'qituvchi va talabalar uchun mobil ilovalar, baholash va tahlil qiluvchi dasturlar kiradi. Innovatsion texnologiyalardan foydalanishning qator afzalliklari va kamchiliklari bor. Innovatsion texnologiyalarning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- o'qitishda samaradorlik: texnologiyalar jarayonni samarali olib borish imkonini beradi. O'qituvchilar darslarni turli xil multimedia materiallari bilan boyitish orqali o'quvchilarning diqqatini jalb qilishlari va darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirishlari mumkin;

=====

- shaxsga yo'naltirilgan ta'lim: texnologiyalar yordamida har bir o'quvchining individual ehtiyojlariga mos ravishda ta'lim berish mumkin. O'quvchilar o'zlarining ta'lim olish jarayonini rejalashtirishlari mumkin;

- qulaylik: onlayn ta'lim platformalari orqali istalgan joyda va istalgan vaqtda ta'lim olish imkoniyati mavjud. Bu ayniqsa masofaviy ta'lim sharoitida juda muhimdir;

- ma'lumotlardan foydalanish: internet orqali keng ko'lamli resurslarga, ilmiy tadqiqotlarga va boshqa ma'lumotlarga tezkor kirish, istalgan ma'lumotlarni topish imkoniyati mavjud.

- yangi ko'nikmalarni rivojlantirish: innovatsion texnologiyalar yordamida zamonaviy ko'nikmalar masalan: IT ko'nikmalari, til o'rganish mumkin va aynan shu ko'nikmalarni mustahkamlab borish mumkin;

- baholash: innovatsion texnologiyalar ta'sirida onlayn baholash tizimi joriy etilgan bo'lib, o'quvchining baholarini, topshiriqlarni, imtixon sanalarini o'quvchining o'zi bilan birgalikda ularning ota-onalari ham ham nazorat qilishlari mumkin.

Innovatsion texnologiyalarning afzalliklari bilan bir qatorda kamchiliklari ham mavjud va bular:

- texnologik muammolar: ba'zida texnologiyalar ishlamay qolish yoki internet ulanishi muammolari yuzaga kelishi mumkin, bu esa ta'lim jarayoniga to'sqinlik qiladi;

- o'qituvchining tayyorgarligi: o'qituvchilar innovatsion texnologiyalarni qo'llash uchun yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak. Buning uchun ularni tayyorlash zarur.

- o'zaro aloqa yetishmovchiligi: masofaviy ta'lim sharoitida o'zaro muloqot va ijtimoiy aloqalar kamayishi, bu esa o'z navbatida o'qitish sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuningdek, o'quvchilarning og'zaki nutqiga ta'sir etadi;

- o'qitish sifatining pasayishi: agar texnologiyalar noto'g'ri qo'llanilsa yoki o'qituvchilar uni samarali ishlata olmasa, o'qitish sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ta'limda innovatsion texnologiyalarni qo'llashning ijobiy va salbiy tomonlari mavjud. Ularni samarali ishlatish uchun to'g'ri rejalashtirish, o'qituvchilarning tayyorgarligini oshirish va texnologik dastur rejasi zarur. Innovatsion texnologiyalardan to'g'ri foydalanish ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va sifatli qilishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алексеева, Л.Н. Инновационные технологии как ресурс эксперимента/ Л.

Алексеева// Учитель. - 2009.

2. Ziyamuhammedov Bo'ri, Mamarajab Tojiyev. Pedagogik texnologiya- zamonaviy o'zbek milliy modeli. Toshkent. 2009-yil.